

O‘QITUVCHI TAYYORLASHNING ZAMONAVIY MODELII: BOSHLANGICH TALIM YO‘NALISHIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR TAHLILI**Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi***Sharof Rashidov nomidagi**Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*hulkarboltayeva@gmail.com

+998 90 657 02 02

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy modeli hamda unda innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Interfaol o‘qitish, muammoli ta‘lim va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalarining nazariy asoslari hamda ularning bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik yondashuvlarning talabalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kommunikativ madaniyat va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga ta‘siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga samarali integratsiya qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati va ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta‘lim texnologiyalari, boshlang‘ich ta‘lim, bo‘lajak o‘qituvchi, interfaol o‘qitish, muammoli ta‘lim, loyiha asosida o‘qitish, kasbiy kompetensiya, innovatsion pedagogika, ta‘lim sifati, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются современная модель подготовки будущих учителей начального образования и вопросы использования инновационных образовательных технологий в данном процессе. Освещены теоретические основы интерактивного обучения, проблемного обучения и проектной технологии, а также их роль в развитии профессиональных компетенций будущих учителей начальных классов. Кроме того, раскрыто влияние инновационных педагогических подходов на формирование у студентов навыков самостоятельного мышления, творческого подхода, коммуникативной культуры и практической деятельности. Результаты исследования показывают, что эффективная интеграция современных образовательных технологий в учебный процесс способствует повышению качества профессиональной подготовки будущих учителей и эффективности образования.

Ключевые слова: современные образовательные технологии, начальное образование, будущий учитель, интерактивное обучение, проблемное обучение,

проектное обучение, профессиональная компетентность, инновационная педагогика, качество образования, педагогические технологии.

Abstract: *This article analyzes the modern model of training future primary school teachers and the use of innovative educational technologies in this process. The theoretical foundations of interactive learning, problem-based learning, and project-based learning technologies, as well as their role in developing the professional competencies of future primary school teachers, are discussed. Furthermore, the study highlights the impact of innovative pedagogical approaches on fostering students' independent thinking, creativity, communicative culture, and practical skills. The findings indicate that the effective integration of modern educational technologies into the learning process contributes to improving the quality of professional teacher training and enhancing educational effectiveness.*

Keywords: *modern educational technologies, primary education, future teacher, interactive learning, problem-based learning, project-based learning, professional competence, innovative pedagogy, educational quality, pedagogical technologies.*

Zamonaviy ta'lim o'qitish va o'rganishni tashkil etish, diagnostika qilish hamda baholashda axborot-kommunikatsiya vositalari va pedagogik yondashuvlarni birlashtirgan sistemadir. Ta'lim texnologiyalari o'z ichiga raqamli resurslar, multimediya, onlayn platformalar va o'quv muhitini optimallashtiruvchi pedagogik modellarni oladi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilik faoliyatining mazmunini va uslubini tubdan o'zgartirish quvvatiga ega, chunki ular nafaqat axborotni yetkazish, balki o'quv jarayonini individualizatsiyalash, hamkorlikni kuchaytirish va ijodiy faollikni oshirish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ushbu yo'nalishda talabalarning bilim olishga bo'lgan munosabati, mustaqil fikrlash ko'nikmalari va kommunikativ madaniyati shakllanadi. Shu bois bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida interfaol va innovatsion o'qitish texnologiyalarini chuqur o'zlashtirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda foydalaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tahlil qilish va ularning ta'lim sifati hamda kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Interfaol o'qitish texnologiyalari ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning o'zaro faol hamkorligiga asoslanadi. Bu yondashuvda talaba passiv tinglovchi emas, balki bilimni mustaqil izlovchi va yaratuvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Xorijiy pedagog olim Jon Devey ta'kidlaganidek, "Ta'lim faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki o'quvchining faol

tajribasi orqali bilimni kashf etish jarayonidir”⁵⁶. Ushbu fikr interfaol texnologiyalarning nazariy asosini tashkil etib, boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida muammoli vaziyatlar, munozara, rolli o‘yinlar va guruhli ishlash metodlarining samaradorligini asoslab beradi. Chunki talabalar bilimni faol harakat va muloqot orqali tezroq va mustahkamroq o‘zlashtiradilar.

Muammoli ta‘lim texnologiyasi o‘quv jarayonida maxsus tashkil etilgan muammoli vaziyatlar asosida talabalarning fikrlash faolligini kuchaytirishga yo‘naltiriladi. Bu texnologiyada o‘qituvchi tayyor javobni bermaydi, balki savollar, vaziyatlar va muammolar orqali talabani mustaqil izlanishga undaydi. Xorijiy pedagog olim Jon Devey muammoli ta‘lim g‘oyasini asoslab, “Ta‘lim fikrlashdan boshlanadi, fikrlash esa muammo mavjud bo‘lgandagina yuzaga keladi”⁵⁷, - deb ta‘kidlaydi. Ushbu fikr muammoli ta‘limning mohiyatini ochib beradi, ya‘ni talabada muammo bo‘lmasa, bilishga ehtiyoj ham yuzaga kelmaydi. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida bu yondashuv talabalarda qiziqish uyg‘otish, savol berishga o‘rgatish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoli ta‘lim va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalari boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida talabalarning bilishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi, ularni faol fikrlashga va amaliy faoliyatga yo‘naltiradi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari ushbu texnologiyalarning nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bois bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida muammoli ta‘lim va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalarini chuqur o‘rgatish hamda ularni dars jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha metodik tayyorgarlikni kuchaytirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi talabalarning amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan holda bilimlarni egallashini ta‘minlaydi. Ushbu texnologiyada talabalar ma‘lum bir mavzu yoki muammoni loyiha shaklida ishlab chiqadilar, rejalashtiradilar, bajaradilar va yakuniy natijani taqdim etadilar. Loyiha metodining asoschilaridan biri bo‘lgan Villiam Kilpatrik “Loyiha – bu talabaning maqsadga yo‘naltirilgan va ongli faoliyatidir”⁵⁸, - deb ta‘rif beradi. Ushbu ta‘rif loyiha asosida o‘qitishning mohiyatini ochib, talabaning faol ishtiroki va shaxsiy mas‘uliyatini ta‘kidlaydi. Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida loyiha metodidan foydalanish talabalarda rejalashtirish, izlanish va natijani baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Innovatsion o‘qitish texnologiyalari ta‘lim jarayoniga yangicha yondashuvlar, raqamli vositalar va pedagogik modellarni tatbiq etishni nazarda tutadi. Xususan, amerikalik olim R.Slavin o‘z tadqiqotlarida hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining ahamiyatini alohida ta‘kidlab, “Talabalar birgalikda ishlaganda nafaqat akademik natijalar, balki ijtimoiy

⁵⁶ Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 2016. – 434 p.

⁵⁷ Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 2016. – 434 p.

⁵⁸ Kilpatrick W. H. The Project Method. – New York: Teachers College, Columbia University, 2018. – 82 p.

ko‘nikmalar ham rivojlanadi”⁵⁹, - deya qayd etadi. Bu g‘oya boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida innovatsion texnologiyalar orqali ijtimoiylashuv, muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, loyiha asosida o‘qitish, klaster, aqliy hujum kabi metodlar talabalarning kreativ va kritik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari boshlang‘ich ta‘limda talabalarning bilimlarni chuqur o‘zlashtirishi, ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari ushbu texnologiyaning nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarini puxta o‘rgatish, ularni dars jarayonida samarali qo‘llash bo‘yicha metodik tayyorgarlikni kuchaytirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga kiritishda ikki asosiy nazariy yondashuv ko‘riladi: kognitiv-multimediya tamoyillari va o‘qituvchilik faoliyatining integratsion modellari. R. E. Mayer o‘zining “Multimedia Learning” (“Multimediya orqali o‘qitish”) asarida “so‘zlar va tasvirlar birgalikda taqdim etilganda o‘rganish chuqurlashadi”⁶⁰, - deya kognitiv-multimediyali tamoyil samaradorligini nazariy jihatdan asoslaydi. Ushbu g‘oya boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini multimediya resurslarini maqsadli hamda ilmiy jihatdan to‘g‘ri ishlatishga o‘rgatishda amaliy ko‘rsatma beradi.

O‘qituvchilarni tayyorlashda texnologiyalarning samarali integratsiyasi uchun TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli keng qo‘llaniladi. Punya Mishra va Matheye J. Koehler⁶¹ tomonidan taklif qilingan ushbu model o‘qituvchidan nafaqat fan kontenti va pedagogika bilimlarini, balki texnologik bilimlarni ham sinxronlashtirishni talab qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi pedagogik texnologiyani faqat vosita sifatida ishlatmay, balki o‘quv maqsadiga mos holda pedagogik strategiya bilan uyg‘unlashtirishni bilishi lozim. Bu o‘qituvchilik kompetensiyalarini qayta shakllantiradi. Ya‘ni o‘qituvchi darsni rejalashtirishda texnologiyani o‘qitish maqsadlariga qanday moslashtirishni aniqlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Bu an‘anaviy va zamonaviy yondashuvda turli xil kechgan.

An‘anaviy yondashuvda o‘qituvchi markaziy rolni egallab, bilimni uzatish asosiy vazifasi hisoblanardi. Zamonaviy yondashuvda esa talabani faol subyekt sifatida ko‘radi, o‘quv jarayonini hamkorlik, loyiha asosida o‘qitish va muammolarni hal etish orqali tashkil etishni talab etadi. Mahalliy adabiyotlarda ham bu farq ochiq ko‘rsatib o‘tiladi. Mahalliy o‘quv qo‘llanmalar va maqolalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talaba faoliyatini

⁵⁹ Slavin R. E. Educational Psychology: Theory and Practice. – 12th ed. – Boston: Pearson Education, 2018. – 552 p.

⁶⁰ Mayer R. E. Multimedia Learning. – second edition. – New York: Cambridge University Press, 2009. – 304 p.

⁶¹ Mishra P., Koehler M. J. Handbook of Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK) for Educators. – New York: Routledge, 2016. – 280 p.

individualizatsiyalash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim vosita ekani ta’kidlanadi.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonini mazmunan va metodik jihatdan boyitadi. Nazariy jihatdan TPACK modeli o‘qituvchining yangi kompetensiyalarini belgilaydi, multimediya tamoyillari esa dars materialini samarali dizaynlashni tavsiya etadi. Mahalliy tajribalar va o‘quv qo‘llanmalar (masalan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar) esa ushbu nazariy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish uchun metodik yo‘riqnomalar beradi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida interfaol va innovatsion o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash talabalarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari shuni ko‘rsatadiki, mazkur texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan, ijodkor va kompetent pedagog sifatida shakllanadi. Shu bois dissertatsiya doirasida interfaol va innovatsion texnologiyalarni tizimli o‘rganish va ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabani faol subyekt sifatida shakllantirish, uning ijtimoiy, kommunikativ va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari talabalarning kichik guruhlarda o‘zaro muloqot va hamjihatlik asosida bilimlarni egallashiga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda har bir ishtirokchi umumiy natija uchun mas‘ul hisoblanadi. Bu texnologiya ayniqsa boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida samarali bo‘lib, talabalarda jamoada ishlash, fikr almashish va o‘zaro yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabaning mustaqil fikrlashi, muammoni tahlil qila olishi va amaliy faoliyat orqali bilimlarni egallashi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan muammoli ta’lim va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalari boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida yuqori pedagogik samaradorlikka ega bo‘lgan innovatsion yondashuvlar sifatida e’tirof etiladi. Ushbu texnologiyalar talabani tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki muammoni hal qiluvchi va bilimlarni yaratuvchi subyektga aylantiradi.

1. Raqamli infratuzilmaga tayanuvchi o‘qitish va o‘rganish texnologiyalari – bu ta’lim jarayonini raqamli vositalar, platformalar va tarmoqlar orqali tashkil etish hamda amalga oshirishni anglatadi. Ular an’anaviy ta’limdan farqli ravishda internetga ulangan, elektron resurslar, interfaol platformalar, masofaviy va adaptiv ta’lim tizimlari asosida ishlaydi. Ushbu texnologiyalar:

–ta’lim jarayonini samaraliroq, individual va moslashuvchan qiladi;

–talabalarning faol ishtirokini oshiradi;

–talabalarga yangi o‘quv muhiti va didaktik imkoniyatlar beradi.

2. Pedagogik dizayn va darsni loyihalash texnologiyasi. Pedagogik dizayn o‘qitish jarayonini oldindan ilmiy asosda rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish va baholashga yo‘naltirilgan texnologik yondashuvdir. U ta‘lim maqsadlari, o‘quv mazmuni, metodlar, vositalar va natijalarni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Pedagogik dizayn – an‘anaviy dars ishlanmasidan farqli ravishda “nima o‘tiladi?” emas, balki “qanday o‘rganiladi?” va “qanday natija olinadi?” degan savollarga javob beradi. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik dizayn kasbiy fikrlashni, tizimli yondashuvni va refleksiyaning shakllantiradi.

Darsni loyihalash texnologiyasi pedagogik dizaynning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, u darsni maqsadga yo‘naltirilgan, o‘quvchi faoliyatiga asoslangan, natijaga qaratilgan tarzda tuzishni nazarda tutadi. M.Quronov ta‘kidlaganidek, “zamonaviy dars oldindan loyihalangan holda natija bermaydi, chunki pedagogik jarayon texnologik yondashuvni talab qiladi”. Mazkur fikr zamonaviy ta‘lim jarayonida darsni tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etish zarurligini anglatadi. Darhaqiqat, pedagogik faoliyat tasodifiylikka emas, balki aniq rejalashtirilgan natijaga asoslanishi lozim. Darsni oldindan loyihalash orqali o‘qituvchi maqsad, kutilayotgan natija, metod va baholash mezonlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minlaydi. Bu esa ta‘lim samaradorligini oshiradi hamda talabalarda zarur kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Sh.Abdullayeva o‘zining ilmiy ishida pedagogik dizaynni “ta‘lim maqsadi, mazmuni va metodlarining uzviyligi asosida o‘quv jarayonini boshqarish mexanizmi”, sifatida talqin qiladi. Ushbu fikrlardan keyin pedagogik dizaynni nazariy emas, amaliy zarurat ekanligini tushunishimiz mumkin.

3. Amaliyotga yo‘naltirilgan kasbiy tayyorgarlik texnologiyalari bo‘lajak mutaxassislarni nazariy bilim bilan amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirib tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvdir. Talabani kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, darsda o‘rgangan nazariy bilimlarni real ish sharoitida qo‘llash imkonini berish, talabani mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ushbu texnologiyaning asosiy maqsadidir.

Sh.Abdullayevaning ilmiy qarashlarida “amaliyotga yo‘naltirilgan tayyorgarlik talabani kasbiy kompetensiyasini shakllantiradigan asosiy komponent” ekanligi ta‘kidlanadi.

Chunki, ushbu texnologiya quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

-tajriba va nazariya uyg‘unligi;

-kichik guruh va individual ish;

-loyiha va vazifa asosida tayyorgarlik;

-refleksiya va feedback;

4. Baholash va monitoring texnologiyalari ta’lim jarayonida talabalar faoliyati, pedagogik jarayon sifatida va ta’lim natijalarini muntazam kuzatish, tahlil qilish va baholashga qaratilgan zamonaviy pedagogik vositalar tizimi hisoblanadi. Ushbu texnologiya an’anaviy test va imtihondan ko’ra kengroq konsepsiyani o’z ichiga oladi: formativ, summativ, diagnostik, kompetensiyaga asoslangan va raqamli baholash vositalarini qamrab oladi. Baholash darsning natijadorligini ta’minlaydigan integral komponent hisoblanadi, talabaning bilim, ko’nikma va kompetensiyalarini tizimli ravishda aniqlash, dars va pedagogik jarayonlarni optimallashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar ularni yanada samarali va tezkor qiladi, pedagogik dizaynning ajralmas qismiga aylanadi.

5. Hamkorlik, kommunikatsiya va kasbiy hamjamiyat texnologiyalari o’qituvchi va talabaning, shuningdek, o’qituvchilar o’rtasidagi samarali muloqot va hamkorlikni tashkil etishga qaratilgan pedagogik va raqamli vositalar tizimi hisoblanadi.

Ta’limning samaradorligi texnologiyaning o’zi bilan emas, balki ta’lim maqsadlari, metodik yechimlar, murabbiylik sifati, institutning infratuzilmasi va ta’lim ishtirokchilarining madaniy-axloqiy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Zamonaviy yondashuvlar bo’lajak o’qituvchini “tayyor retseptlar bilan qurollantirishdan ko’ra, uni o’quv jarayonini tahlil qila oladigan, ma’lumotlarga asoslanib qaror qabul qila oladigan, innovatsiyani sinab ko’radigan va refleksiya orqali o’z amaliyotini takomillashtiradigan professionalga aylantirishni ko’zlaydi. Boshlang’ich ta’limining poydevori ahamiyati hisobga olinganda, aynan shu bosqich o’qituvchisining zamonaviy texnologiyalarni ongli va mas’uliyatli qo’llashi kelajak avlodning savodxonligi, tafakkuri va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Tadqiqot natijalari bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogic va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhi ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatdi. Raqamli platformalar, interfaol metodlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari talabalarning kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularda kritik fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik kabi 4K kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur texnologiyalar ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda o’qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini beradi. Shu bois bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish pedagogik ta’limning ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashda dasturlarida raqamli texnologiyalar bilan ishlashga oid amaliy mashg’ulotlarni ko’paytirish, ta’lim jarayonida

interfaol metodlar va zamonaviy onlayn platformalardan muntazam foydalanishni yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha malaka oshirish tadbirlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anna Smith. Innovative Teaching Methods in Primary Education. -2022.
2. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 2016. – 434 p.
3. Kilpatrick W. H. The Project Method. – New York: Teachers College, Columbia University, 2018. – 82 p.
4. Mayer R. E. Multimedia Learning. – second edition. – New York: Cambridge University Press, 2009. – 304 p.
5. Slavin R. E. Educational Psychology: Theory and Practice. – 12th ed. – Boston: Pearson Education, 2018. – 552 p.
6. Toshxonov A.T. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi. – Toshkent, 2023. – 138 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Xalq so‘zi. – Toshkent, 2022-yil 1-fevral. №23 (8085).